

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BADIIY GRAFIKA FAKULTETI

“Tasviriy sanat kafedrası“

Kasb ta'limi (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi) ta'lim yo'nalishi

3 «R» gurux talabasi

Rustamova Dilnozaning

Tasviriy san'atning umumiy tarixi fanidan bajargan

KURS ISHI

Mavzu : Italiya ilk va yuqori uyg'onish davri san'ati.

Bajardi:

Rustamova Dilnoza

Ilmiy raxbar:

O.N.Samadov

Kafedra mudiri v.v.b:

Sh.Sh.Baqoev

Buxoro - 2015 yil.

Mavzu : Italiya ilk va yuqori uyg'onish davri san'ati.

REJA:

Kirish.

II. Asosiy qism: Italiya – uyg'onish davri san'ati o'chog'i

2.1. Italiyada ilk uyg'onish davri san'ati

2.2 XV asr ikkinchi yarmida Florensiya san'ati

2.3 Italiyada yuqori uyg'onish davri san'ati

2.4 Yuqori uyg'onish davrida Venestiya san'ati

XULOSA.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

ILOVALAR.

MUNDARIJA:

Kirish.....4-6 b

II. Asosiy qism: Italiya – uygʻonish davri sanʼati oʻchogʻi.....7-37b

2.1. Italiyada ilk uygʻonish davri sanʼati.....7-11b

2.2 XV asr ikkinchi yarmida Florensiya sanʼati.....12-21 b

2.3 Italiyada yuqori uygʻonish davri sanʼati.....22-32 b

2.4 Yuqori uygʻonish davrida Venestiya sanʼati.....33-37b

XULOSA.....38 b

ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....39 b

ILOVALAR.....40-45 b

KIRISH

Feodal jamiyati qo'ynida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi G'arbiy Evropa hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Din o'z obro'sini yo'qta bordi, mayda xunarmandchilikdan manafakturaga o'tish, shaharlarning tezlik bilan kengayib, rivojlanib borishi, yangi qit'alarining ochilishi va savdo-sotiqning rivojlanishi ijtimoiy hayot qiyofasini ham, odamlarning hayotga, voqelikka bo'lgan munosabatini ham o'zgartira boshladi. Bu davrga kelib, qirol hokimiyati shahar aholisiga suyanib, feodal dvoryanlarning qudratini sindirib tashladi va yirik-yirik, aslida millatlarga asoslangan monarxiyalar tuzdi, bu monarxiyalarda hozirgi zamon Evropa millatlari va hozirgi zamon burjua jamiyati taraqqiy eta boshladi. Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san'at va madaniyat kamol topdi. Kitob bosishning vujudga kelishi adabiy va ilmiy asarlarni keng tarqatish imkoniyatini yaratdi. Mamlakatlar orasidagi yaqin munosabatlar esa badiiy hayotdagi yangiliklarni tezda o'zlashtirish imkonini tug'dirdi.

XV—XVI asrlarda o'z taraqqiyotini boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixda «Uyg'onish» deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san'atshunos Jorj Vazari Italiyada san'at uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan «uyg'onganligi» sababli ishlatgan va asosan, rassom Jotto ijodiga nisbatan qo'llangan edi. Keyinchalik esa bu ibora keng mazmun kasb etib, Italiyada, so'ngra Evropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan, feodalizm asridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlandi.

Uyg'onish davri madaniyati va san'ati o'z xususiyati va mohiyatini Italiyada to'liq namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bular, asosan, quyidagilardan iborat:

1. Uyg'onish arafasi davri - protorenessans (XIII—XIV asrlar).
2. Ilk Uyg'onish davri—kvatrachento (XV asr).
3. Yuqori Uyg'onish davri (XV asrning 90-yillari—XVI asrning 20—30-yillari).

4. So'nggi Uyg'onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi). (So'nggi Uyg'onish davrida gumanistik san'at bilan birga tushkun manerizm oqimi ham mavjud bo'ldi).

Albatta, Uyg'onish davri taraqqiyot bosqichlari hamma mamlakatlarda bir xil bo'lmadi. Masalan, Germaniya so'nggi Uyg'onish, Niderlandiya esa yuqori Uyg'onish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan.

Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim insoniyatning shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlari ichida eng buyuk o'zgarish bosqichi, bu davr o'z tafakkur kuchi, extiros va harakteri jihatidan, mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni etishtirib berdi. Dunyoviy san'at va madaniyat misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Uyg'onish davri kishilari insonning aql-idrokiga, imkoniyatining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakdagi tantanasiga ishonidilar. O'z izlanishlarining markaziga esa shu insonni qo'yidilar.

Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yarata oldilar, keng xalq ommasining orzu-istak, his-tuyg'ularini ifodalab, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqidilar. Shu boisdan ham bu davr «gumanizm asri» (humanism lotincha insoniy, insonparvar) deb ham ataldi. Uyg'onish davri antik dunyo madaniyatidan ta'sirlandi. Uning yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi(antik dunyo yodgorliklarining Italiyada mo'lligi bunga qo'l keldi). Lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanmadilar. Aksincha, undan o'z fikr, tuyg'u tushunchalarini ta'riflashda foydalandilar. Real voqelikka, go'zallikka qiziqish davr taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hayot real xodisa deb tan olindi. San'atkorlar voqelikni haqqoniy tasvirlashda yangi qonun-qoidalarni izlay boshladilar. Perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya nazariyasi, plastik anatomiya borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Me'morlik va amaliy-bezak san'ati ijodkorlari qadimgi an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdilar, me'morlikning yangi

konstrukstiyalari vujudga keldi, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi ijtimoiy binolar qad ko'tardi. Binoning tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish, san'at sintezi borasida erishilgan yutuqlar keyingi jahon san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

II. Asosiy qism: Italiya – uygʻonish davri sanʼati oʻchogʻi

2.1. Italiyada ilk uygʻonish davri sanʼati

Protoerenessans. Italiyaning Sharq va Gʻarb orasidagi muhim savdo yoʻlida joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo-sotiqning rivojlanishi, oʻzga yurtlar bilan aloqasining yoʻlga qoʻyilganligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi. Feodal munosabatlarning zaifligi esa bu erda yangi siyosiy tartibni shahar-respublika tartibining paydo boʻlishiga va Italiyaning Evropada birinchi boʻlib kapitalistik mamlakatga aylanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir boʻlgan bu xususiyat sanʼat va madaniyatda oʻz ifodasini topdi. Bu oʻzgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan Oʻrta Italiyada joylashgan Florensiya, Piza, Siena hamda Shimoliy qismidagi Genuya, Milan, ayniqsa, savdogar va bankirlar respublikasi boʻlgan Venestiyada juda sezilarli boʻldi.

Yangi davr sanʼatining harakterli belgilari dastlab adabiyotda koʻrina boshladi. Bu xususiyat, ayniqsa, Dante Aligeri (1265— 1321) ijodida namoyon boʻldi. Gumanist yozuvchi ijodi xali oʻrta asr allegorizmidan holi emas, simvolik tasvirlar mavjud boʻlsa ham, lekin shu shakllarda sanʼatkorning diniy syujetlarni real voqelik bilan bogʻlashga intilishi seziladi. Albatta, bu hol asta-sekin kamayib, dastlabki gumanist yozuvchi va shoirlar Petrarka va Bakachcho asarlarida mavhum simvolik iboralar ikkinchi oʻringa qoʻyilib, realizm esa birinchi oʻringa chiqarildi, voqelikni harakterli detallar bilan aks ettirishga kirishildi. Uygʻonish davri sanʼatkorlari uchun inson va uni oʻrab olgan muhitning cheksiz imkoniyatlari va qizgʻin extiroslarini atroflicha aks ettirish muhim oʻrin toʻtadi. Inson his-tuygʻulari yangi sharoitda oʻrta asr zoxidlik hayotiga qarshi kuchli isyon koʻtaradi. Uning turmush quvonchlari real talqin etiladi. Ijobiy qahramonlari harakterli. Ularda beqiyos jasorat va mardlik mujassamlashadi. Shaxs erkini ximoya qilgan gumanistlar oʻz kuch-qudratiga, haq ishning tantana qilishiga ishongan, adolat uchun kurashuvchi, qalbi pok, olijanob obrazlarni yaratish orqali Uygʻonish davrining hayotbaxsh ruhini aks ettiradilar. Tasviriy sanʼatda bu xususiyat

dastlab haykaltaroshlikda N. Pizano, rassomlikda Chimabue, (1240 50—1302), Duchcho di Buoninsenya (1255—1319) lar ijodida ko'rina boshladi.

Nikola Pizano (1220 1225— 1278 84).

Haykaltarosh N. Pizanoning ilk asari Pizadagi *baptisteriya* minbari atrofiga ishlangan bo'rtma tasvirlar bo'lib, unda Iso hayotidan olingan voqealar aks ettirilgan. Bu tasvirlar o'zining dunyoviyligi, ko'rinishi jihatidan erdagi oddiy hayotni eslatishi bilan harakterlanadi. U erda tasvirlangan odamlar qiyofasi rimlik taqvodorlarga o'xshab ketadi. Ularning ko'rinishlari vazmin va ulug'vor, ishlangan buyumlarning materiali va hajmini ko'rsatishga e'tibor berilgan. Albatta, asar ramziy belgilardan, *allegoriyadan* holi emas, obrazlar nisbatan har xil, deformastiyaga yo'l qo'yilgan, fazoviy kenglik masalasi shartli olingan, hayotiy detallar ozroq, lekin davr uchun shularning o'zi muhim edi. U keyingi realistik san'at taraqqiyotida alohida o'rinni egalladi. Nikola Pizanoning ijodi Italiya haykaltaroshligining rivojlanishida muhim rol o'ynadi, uning ta'sirida qator san'atkorlar kamol topdi. Shular orasida Arnolfo di Kambio (tax. 1240— 1302), Jovanni Pizano (tax. 1250—1317) mashhurdir.

Jovanni Pizano haykaltaroshlik sirlarini o'z otasi Nikola Pizanodan o'rgangani xolda, protorenessans haykaltaroshligini Uyg'onish davri san'atiga yaqinlashtirdi. U o'z ijodida protorenessans haykaltaroshligiga xos qotib qolgan sun'iylikdan qochib, unga zamon ruhini kiritdi, harakatni kuchaytirdi, ularning hayotiy tomonlarini oshirdi. Jovanni haykaltarosh va me'mor sifatida irod qildi, sobor va cherkovlar qurish ishlarida qatnashdi. Minbarlar uchun relef, ibodatxona tokchalariga qo'yish uchun haykallar ishladi. Bu relef va haykallar harakatda, kuchli his-hayajon bilan ishlangan. Shu o'rinda uning «*Butga mixlangan*», «*Chaqaloqlarni chavoqlash*» kompozistiyalari harakterli.

Jovannining go'dak ko'tarib turgan madonnalar obrazi ham jonli. Bu haykallarda onalik mehri bilan to'lib toshgan Bibi Maryam va unga talpinayotgan go'dak obrazi hayotiy bo'lib, ularda diniy mistik tushunchalar yo'q.

XII asrning oxirlarida Florensiya Italiyadagi yirik xu-narmandchilik va savdo-sotiq markaziga aylandi. Siyosiy xo-kimiyat hunarmandlar va savdogarlar

qo'liga o'tdi. Ishchilar bir korxonaga to'plandi. Mehnat taqsimotining o'ziga xos ko'rinishi kapitalistik munosabatlar yuzaga keldi. Endilikda akl-farosatli, ijodkor inson imkoniyatlariga qiziqish kuchaydi. Dantening vatani bo'lgan Florensiyada tasviriy san'atdagi shu yangi xislatlar—realistik mazmunni ifodalashga intilish rivojlandi.

Yangi davr izlanishlari dastlab florenstiyalik Chimabue nomi bilan mashhur Chenni di Peppo ijodida ko'rina boshladi. Vazari tabiri bilan aytganda, u birinchi bo'lib rasm chizish va rangtasvirning yangi usullariga asos soldi. Chimabuening asarlari bizgacha kam etib kelgan. Lekin ular rassom ijodidagi novatorlikni ko'ra olish imkoniyatini beradi. «Butga mixlangan» (1280 yil), «Madonna chaqaloq va farishtalar bilan» (1280—1285 yillar) kabi kompozistiyalarida harakat, xayajonni tabiiy aks ettirishga, obrazlarni bir-biri bilan ruhiy bog'lashga harakat qilganligi sezilib turadi, kompozistiyada fazoviylik elementlari ko'rinadi. So'zsiz, Uyg'onish davrining yirik rassomi, protoressans rangtasvir sanatining buyuk islohotchisi Chimabuening shogirdi Jotto di Bondone (1266-67—1337) hisoblanadi. Shakllanib kelayotgan yangi ziyolilarning tipik vakili, realistik sanatining asoschilaridan biri, rassom, haykaltarosh, memor Jotto o'zidan avvalgi va o'zi yashagan davrdagi realistik san'at borasida erishilgan yutuqlarni chuqur o'zlashtirgan xolda, uni yangi pog'onaga ko'tardi. Jotto kompozistiyalari asosida, asosan, diniy mavzu yotsa ham, lekin shu afsonaviy voqealarni yangi mazmun bilan, shu davrda shakllanib kelayotgan yangi madaniyat talablari mazmuni bilan o'zviy borliq xolda namoyon etadi. Uning asarlarida real inson butun borlig'i bilan tasvirlanadi, uning jasorati, olijanoblighi, insonparvarligi kuylanadi. Shu bilan birga, insonlar orasida uchrab turadigan xudbinlik, yovuzlik, sotqinlik kabi xislatlar ochib tashlanadi. Jotto asarlarining bosh mavzusi manaviy-ahloqiy barkamol insonni ulug'lash va uni davr ideali darajasiga ko'tarishdir. U voqelikni real muhitda—makonda ifodalashga intiladi. Shu maqsadda u tasviriy sanatning tasviriy va ifoda vositalari bo'lgan yorug'-soya imkoniyatlaridan keng foydalanishga harakat qiladi. Kompozistiyaning mantiqiy qurilishiga, makonda joylashgan har bir obrazni o'rinli ko'rsatishga erishadi. Jotto o'z davrining

mashhur sanatkori edi. Uning sanati ko'pchilikka manzur bo'ldi. Bu, albatta, unga buyurtmalarning ko'plab berilishiga sabab bo'ldi. Natijada Florensiyada dunyoga kelgan bu sanatkorning ishlagan suratlari Italiyaning juda ko'p shaharlariga borib etdi. U erlardan ham buyurtmalar kelib turdi. Bu katta buyurtmalarni bajarish uchun katta badiiy ustaxona tashkil etdi va o'zining shogirdlari bilan birga ishladi. Bu esa sanatkorning yanada mashhur bo'lishiga, tasir doirasining kengayishiga sabab bo'ldi. Rassomning muxim asarlaridan biri, Paduyadagi del Arena kapellasiga ishlangan devoriy suratidir. Bu suratda sanatkorning grajdanlik pozistiyasi, yuksak badiiy mahorati namoyon bo'ldi. Suratlarda Bibi Maryam va Iso hayoti tasvirlanadi. Lekin, diniy voqealar sanatkori tomonidan real voqeadek ifodalanadi. Natijada uning obrazlari xis-tuyg'u, kuch-quvvatga to'la real kishilarni eslatadi. Ularning vazmin jussalari, basavlat liboslari manzara, tabiat qo'ynida yanada ko'rkam va ulug'vor ko'rinadi. Kompozistiyaga kiritilgan hayotiy lavhalar esa uning tasirchanligini yanada oshiradi. Rassomning muhim yutuqdaridan biri shundaki, u o'z qahramonlarining harakterini, ularning manaviy dunyosi, xatti-harakati, o'zini tutishi va tashqi qiyofasida ko'rsatadi. Bu xususda «Ioximning cho'ponlar orasiga qaytishi», «Iuda bo'sasi», «Isoga aza tutish» kabi suratlari harakterlidir.

«Iuda bo'sasi» kompozistiyasi markazida Iso va uning sotqin shogirdi Iuda tasvirlanadi. Isoning ochiq chexrasi, o'zini xotirjam tutishida nuroniylik sezilib turadi. Aksincha, o'zining yomon niyatlarini yashirishga intilgan, lekin bu niyatlari uning xunuk tashqi qiyofasida ham namoyon bo'lgan, Iuda obrazida esa sotqin, xalq nafratiga duchor bo'lgan shaxs gavdalanadi.

Jotto o'z ijodi bilan Uyg'onish davri realistik rangtasvirining asosiy yo'nalishini boshlab berdi. Insonga ishonch, insoniylikni ulug'lash kabi qarashlar keyingi davr rassomlarini realistik sanatning yangi ifoda va tasvir vositalarini izlashga da'vat etdi. Uning zamondoshlari, undan keyingi sanatkori ham Jotto ijodini namuna maktabi deb bildilar.

XIII asr oxiri—XIV asrning birinchi yarmida Sienada ham protorenessans sanati rivoj topdi. Bu paytlarda Siena boy bankirlar shahri edi. Shu muhitda

yaratilgan san'at asarlari Florensiya badiiy maktabidan farqli o'laroq birmuncha aristokratik, nafis va dekorativligi bilan farqlanadi. To'g'ri, Siena maktabi rivojida florensiyalik rassomlarning, ayniqsa, Chimabue, Jottolarning roli sezilarli bo'ldi. Lekin bu sienalik rassomlarning o'ziga xos protorenessans davri sanadini yaratishlariga xalaqit bermadi. Sienalik shunday rassomlardan biri Duchcho di Buoninsenya (tax. 1255—1319) xisoblanadi. Uning asarlaridagi obrazlar xatti-harakatida tabiiylik, ularning qiyofalari, qarashlarida mayin insoniylik, tuyg'ulari sezilib turadi. Rassom har bir obrazni zo'r ishtiyoq bilan ishlaydi, har bir detalning tugal va aniq bo'lishiga etibor beradi. Duchchoning mashhur asari sobor mehrobi uchun ishlangan surati xisoblanadi. Bibi Maryam va Iso tarixiga bag'ishlangan bu katta kompozistiya (eni 4,24 m, balandligi 4 m ga yaqin) markazida chaqaloq ko'tarib o'tirgan Bibi Maryam, uning atrofida avliyo va farishtalar aks ettirilgan. Rassom bu asarida ham xikoyanavislikka katta etibor beradi, nur, rang, chiziqlarning emostional imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Bibi Maryam va Iso hayotiga bag'ishlangan syujet kompozistiyalari, ayniqsa, hayotiy va jonli chiqqan. Sienalik san'atkor Simone Martini (tax. 1284-1344) ijodida ham shu Siena maktabiga xos xususiyatlar-voqelikni poetik va emostional talqin etish, serjilolik va nafislik mavjud. Uning asarlarida rang muhim o'rinni egallaydi va estetik emostional tomonini belgilashda etakchi rol o'ynaydi. Simone Martini Italiyaning ko'pgina shaharlarida ijod qilib, diniy mavzudagi asarlari bilan birga hayotiy voqealarga bag'ishlangan asarlar yaratdi, portret ishladi. Shular ichida yollangan harbiy qumondon Gvidorichche dp Folyanolga bag'ishlangan devoriy surati mashhurdir. Protorenessans realizmining rivojlanishi haqida gap borganda, Ambordjo Lorenstetti (XIV asr) nomini eslamay bo'lmaydi. U sienalik rassomlar kabi Jotto ijodiy yutuqlaridan foydalanib, asarlar yaratishga harakat qildi, perspektiva, yagona qarash nuqtasi masalalari bilan qiziqdi, real tarixiy muhit, konkret tabiat ko'rinishlarini tasvirlashga harakat qildi, o'z kompozistiyalarida yarim yalong'och ayol obrazini kiritdi. Bular sienalik ustalar ijodida antik san'at bilan aloqa kuchayib borayotganligini va renessans san'ati tamoyillari mustahkamlanib borayotganligini ko'rsatadi.

2.2 XV asr ikkinchi yarmida Florensiya san'ati

XIV asrning oxirlaridan boshlab, Florensiya Italiyadagi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylana boshladi va butun Italiya badiiy madaniyati va sanatining keng qo'lamda qayta yangilanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. XV asrda Florensiyada yashab ijod etgan buyuk sanatkorlar Mazachcho, Donatello, Brunelleski va ularning izdoshlari o'z ijodlarida Uyg'onish davri sanati tamoyillarini namoyon etdilar. Bu sanatkorlarning asarlari gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, ular o'z asarlari markaziga inson obrazini qo'ydilar. Ilk Uyg'onish davri sanatkorlari protorenessans san'ati yutuqlarini davom ettirgan xolda, uni ilmiy jihatdan boyitdilar, realistik sanatning yangi qirralarini ochdilar. Ilk Uyg'onish davrida antik sanatga qiziqish yanada ortdi. Hayotni chuqur o'rganish asosida asar yaratish tamoyillari esa sanatkorlarning fikr doirasini yanada kengaytirdi. Voqelikni ilmiy asosda bilishga intilish paydo bo'ldi. Bu davrda o'lgan binolar, g'oyat katta gumbazli va qator ustunli sobor, saroy va ibodatxonalar qurildi. Florensiyalik memorlar antik memorlik ananalari va order tizimidan unumli foydalandilar va bu ananalarni o'rta asr Italiya memorlik texnikasi yutuqlari, mahalliy qurilish material va konstrukstiyalari bilan uyg'unlashtirib, renessans memorligi uslubini yaratdilar. Bu uslub rivojiga gotika hamda Vizantiya memorligi uslubi ham samarali tasir qildi. Renessans memorligida devor yuzasi tekisligining yaxlitligiga etibor kuchaydi, memorlik kompozitsiyasining vertikal va gorizontal chiziqlar ritmi va mutanosibligiga, xonaning kengligi, uning yaxlit va ko'rkamligiga ahamiyat berila boshlandi. Bu davrda .grajdan memorligi, monastirlar kompleksi, ibodatxonalar qurilishi ham yangilandi. Shaharning ijtimoiy-mamuriy markaz loihasi va tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi tipi paydo bo'ldi.

Ilk Uyg'onish davrida haykaltaroshlik o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu davrda qator etuk haykaltaroshlar ijod etib, realistik haykaltaroshlik sanati taraqqiyotiga muhim xissa qo'shdilar. Bular ichida Lorensto Giberti, Donatello, Yakono della Kverchi kabi haykaltaroshlar,

ayniqsa, mashhurdir. Kvatrochentoga kelib, ykaltaroshlik mustaqil san'at turiga aylandi. Agar o'rta asr sanatkori uchun bu san'at bevosita memorlik bilan bog'liq xolda, uning ajralmas komponenti bo'lgan bo'lsa, endilikda haykaltaroshlik mustaqil san'at sifatida namoyon bo'ldi. Haykaltaroshlik diniy mistik mazmundan xoli bo'lib, bevosita Uyg'onish madaniyatiga xos bo'lgan xususiyat — real hayotga murojaat eta boshladi. Uning bosh qahramoni inson, uning xis-tuyg'u va orzu-istaklari bo'lib qoldi. Bu davrda portret janri ham rivojlandi, ochiq maydonga qo'yish uchun mo'ljallangan otliq haykallar yaratildi. Haykaltaroshlikda yangi material (keramika, bronza, marmar)larning keng ishlatilishi ham haykaltaroshlik san'atidagi qator o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

XV asr boshlarida Florensiya boy bank xo'jayini Kozimo Medichi qo'liga o'tdi. U burjua respublikasining saylanmagan xukmdoriga aylandi. Dono siyosatchi, ayyor diplomat Medichi va uning sulolasi hokimiyat tepasida deyarli XV asrning oxirlarigacha turdi. Kozimo Medichi hokimiyatni mustahkamlash maqsadida o'z atrofiga mashhur sanatkori va olim, donishmandlarni to'pladi, ularni ish bilan taminladi, istedod egalariga xomiylik qildi. O'zidan so'ng uning nabirasi Lorendo bu ishni davom ettirdi. Florensiya XV asr davomida Italiyaning muhim madaniy o'chog'i, ilk Uyg'onish san'atining vataniga aylandi. 1453 yil Vizantiya turklar tomonidan bosib olingandan keyin, u erdagi olim va sanatkorlar Florensiyaga kela boshladilar. Florensiya grek tili, adabiyoti va falsafasini o'rganish markaziga aylandi. Shu erda Platon akademiyasi, kutubxona tashkil etildi. Antik dunyo san'ati yodgorliklarini o'zida mujassamlashtira boshlagan birinchi badiiy muzey yuzaga keldi. Bular so'zsiz, kvatrochento san'ati harakterida o'z ifodasini topdi.

Memorlik. XIV asr oxiri XV asr boshlari Italiya memorligida paydo bo'lgan yangi an'analar davrning buyuk memori Filippe Brunelleski (1377—1446) ijodida o'z ifodasini topdi. Brunelleski Florensiyada notarius oilasida dunyoga keldi, shu erda gumanitar fanlardan chuqur bilim oldi, lekin uning san'atga bo'lgan qiziqishi dastlab zargarlik asoslarini egallashga, so'ng badiiy ijodiyotning boshqa turlarini ham qiziqish bilan o'rganishga da'vat etdi. U 1401 yili Florensiyadagi baptisteriya bronza eshiklari uchun relef ishlash uchun o'tqazilgan tanlovda ishtirok etib, jyuri

azolarining olqshiga sazovor bo'ldi, uning relefi yaxshi baholandi, lekin amalda konkurs qatnashchisi Lorensto Giberti ishlari qabul qilindi. Shundan keyin Brunelleski o'z faoliyatini, asosan, memorlikka bag'ishladi. U memorlar orasida birinchi bo'lib, katta gumbazli bino qurish muammosini xal qildi. Uning ilk asari Florenstiyadagi Sant Mariya dal Fiore sobori tepasiga ishlangan diametri 42 metr bo'lgan sakkiz qirrali gumbaz bo'ldi. Brunelleski karkas uslubidan foydalanib, o'sha davrda eng katta bo'lgan gumbazni qurishga erishdi. Soborning ulug'vor aniq ko'rinishini ifodalagan bu gumbazning qirralari va eng tepasiga o'rnatilgan memorlik bezagi binoga alohida salobat va fayz baxsh etadi, o'zida Uyg'onish davri madaniyatining harakterli tomonini aks ettiradi, inson aql-zakovati tantanasining haykali sifatida namoyon bo'ladi, davrning gumanistik intilishlarini ko'z-ko'z qiladi. Bu gumbaz keyingi Italiya va Evropa memorligi taraqqiyotida muhim o'rin egalladi.

Memorning muhim asarlaridan yana biri Florenstiyadagi 1419 yilda qurila boshlagan Tarbiya uyi binosidir. Bu binoda ilk Uyg'onish memorligi uslubi yaqqol namoyon bo'ldi. Bu ilk Uyg'onish grajdan memorligining birinchi namunasi bo'lib, davrning ilg'or qarashlariga hamoxangdir. Ikki qavatdan iborat bo'lgan bu bino o'z kompozistiyasining soddaligi va nisbatlarining engilligi, gorizental chiziqlarning aniqligi bilan ajralib turadi. Binoning pastki qavati loja (ayvoncha) bilan boshlangan bo'lib, nafis ustunlarni bir-biriga tutashtirib turgan yarim arkalari binoni yanada fayzli qiladi, unga latofat baxsh etadi. Bu ota-onasiz etim-esirlarni o'z quchog'iga olgan binoning gumanistik harakterini namoyon etadi. Arkalar orasiga ishlangan dumaloq medalonlarda esa yosh go'daklar tasviri binoning mazmun, maqsadini ochib, binoning nufuzini yanada orttiradi. Tarbiya uyi qurilishida topilgan konstruktiv va dekorativ uslub keyinchalik Brunelleski qurgan boshqa binolar qurilishida, jumladan, Florenstiyadagi Santa Kroche cherkovidagi Paststi kapellasida rivojlantiriladi. Uncha katta bo'lmagan bu binoning nozik topilgan nisbatlari, dekorativ elementlarning meyorida ishlatilishi unga yaxlitlik va ko'rkamlik baxsh etgan.

XU asr Italiya memorligining yutuqlaridan yana biri palaststo (shahar saroyi) qurilishi tamoyillarida namoyon bo'ladi. Bu qurilish keyinchalik shahardagi ijtimoiy-mamuriy binolar qurilishiga tasir qildi, asos qilib olindi.

Ilk Uyg'onish davri memorligining yana bir buyuk ijodkori Leon Battista Alberti (1404—1474) dir. U XV asr o'rtalaridagi yirik memorgina emas, balki uning nazariyotchisi, ensiklopedik olim hamdir. Alberti «Memorlik to'g'risida o'n kitob» nomli asarida antik yodgorliklarni o'rganish asosida o'zi yaratgan yangi memorlik kompozitsiyalarining ilmiy nazariyasini bayon qildi. Uning izlanishlari yuqori Uyg'onish davri memorligi uslubiga asos yaratdi.

Florensiyadagi Ruchellai palaststosi Albertining tugallangan etuk asarlaridan hisoblanadi. Ochiq hovli atrofida qurilgan to'rtburchak shaklidagi yaxlit uch qavatli bu saroyda Alberti devorlarini qismlarga ajratadigan pilyastr, antibliment va tekis devor yuzasini engil rusta bilan pardozlash hisobiga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi. Bu binoda antik an'ana (Rim memorligi, birinchi galda, Kolizeyning order sistemasiga asoslanib) yangi badiiy mazmun va plastik ifodalilik bilan boyidi. Tasviriy sanat. Ilk Uyg'onish davri tasviriy sanatlarda paydo bo'lgan yangi jarayonlar dastlab haykaltaroshlikda ko'rina boshladi.

Haykaltaroshlikda yangi davr sanati tamoyillari rangtasvirga nisbatan ilgariroq paydo bo'lishiga sabab, dastlab bu sanatning o'rta asr ibodatxonalar qurilishida keng o'rin olganligidir. Chunki ibodatxona va din bilan bog'liq bo'lgan katta binolar qurilishi qoshida haykaltaroshlik, dekoratorlik ustaxonalari ham mavjud bo'lib, bu ustaxonalarda bo'lajak sanatkorlar memorlik, haykaltaroshlik hamda zargarlik sirlarini o'rganishar edi. Bu, albatta, yangi davr plastik sanati ravnaqiga zamin yaratdi. Shunday ustaxonada talim olgan haykaltaroshlardan biri Lorensto Giberti (1378—1455) dir. Uning ijodida o'rta asr haykaltaroshligidan yangi davr realizmiga o'tish o'ziga xos yo'nalishda sodir bo'ldi. Zargarlik asoslarini egallagan bu sanatkor haykaltaroshlik asarlarida ham zargar singari har bir detal va obrazning tugal, aniq shaklga ega bo'lishiga harakat qildi. Florensiyadagi baptisteriya uchun ishlangan bronza eshik yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvir Gibertining mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Bu tasvirda

injildan olingan syujetlar bo'lib, haykaltarosh bunga real hayotiy voqealar, shaharlar, memorlik binolari, turli-tuman o'simliklar, tog'u toshlar ko'rinishini kiritadi. Releflar eshik yuzasida ajratilgan to'rtburchak tekisliklarga ishlangan. Tekisliklar orasiga esa girlyandlar, o'zum boshlarining tasvirini tushiradi, o'zi va shogirdlarining portretlarini kiritadi. Bu eshikda ishlangan tasvirlarda xali gotika tasiri birmuncha seziladi, (masalan, obrazlar cho'ziq, fazoviy kenglik kam ishlangan, odamlar xatti-harakatidagi suniylik va x. k.), lekin haykaltarosh har bir obrazdagi psixologik xolatning hayotiy va ishonarli bo'lishiga intiladi.

Haykaltarosh ijodiga xos bo'lgan bu izlanishlar ayniqsa, uning 1425—

1452 yillarda yaratgan, xisob jihatidan uchinchi bronza eshikda (birinchisi 1402— 1408, ikkinchisi 1403—1424 yillarda ishlangan) yakkoll namoyon bo'ldi. Bu eshiklar xakdda keyinrok. Mikelanjelo:

«Ular shunday ajoyibki, xatto jannat eshigi bo'lishga loyikdir»,—deb aytgan edi. Giberti ilk uyg'onish davrining bi-rinchi nazariyotchilaridan edi. U birinchi bo'lib, nazariy trak-tat (risola) yozadi va unga Italiya sanati tarixiga oid birinchi kdoka malumotni kiritadi. Ilk Uyg'onish davrining yana bir haykaltarosh va memori Yakopo della Kvercha (1374—1438) bo'lib,

dastlabki ijodida gotika tasiri sezilarli bo'lsa ham, lekin ijodining gullagan davrida Uyg'onish davri sanati xos xususiyat kuchli bo'ldi . Zavk.-shavkka tulgan, gayratli va jasur inson obrazini o'ziga xos dadil usullarda real talqin etib, yuqori gumanizm davri san'atkorlarining ijodiga xos yo'lni tuta oldi.

Ilk Uyg'onish davri haykaltaroshligining yulduzi florenstiyalik haykaltarosh Donato di Nikola di Betti Bardi yoki qisqacha Donatello (1386—1466) edi. U Uyg'onish davri haykaltaroshligining haqiqiy isloxotchisi, realistik san'atning asoschisidir. Uning ijodi keyingi Evropa haykaltaroshligi taraqqiyotida muhim o'rinni egalladi. Donatello haykaltaroshlik borasida erishilgan yutuqlar, sodir bo'layotgan yangi tendenstiyalarni o'rganib, uni o'zlashtirgan xolda, kvatrachento san'atiga xos bo'lgan yo'nalishni yaratdi. U haykaltaroshlikning ko'p turlarida ijod qildi, turli mavzuga murojaat

qildi. Donatello badiiy ta'limni dastlab Giberti ustaxonasida egalladi, lekin tezda san'atda o'z yo'lini topib, haykaltaroshlik san'atida davr harakterini tulaqonli ifodalashga erishdi. San'atkor ijodining ana shu o'ziga xos tomoni uning avliyolarga bag'ishlangan «Avliyo Mark» (1411—1412) va ayniqsa, «Avliyo Georgiy» (1416) haykallarida namoyon bo'ldi. Bu asarlarda konkret real shaxsga xos fazilatlar real shakllarda tasvirlanib qolmay, balki shu davr kishilarining ideal inson to'g'risidagi tushunchalari o'zining badiiy ifodasini topdi. Avliyo Georgiy haykalida xaqiqiy renessans davri kishisi ziyrak, aktiv, o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham kurasha oladigan, ideal qaxramon shaxs qiyofasi namoyon bo'ladi. Georgiy o'z dubulg'asini ushlagancha, oyoqlarini erga qattiq tirab, o'z kuchiga ishongan xolda har qanday dushmanga mardlarcha bardosh bera olishga va uni engishga qodir ekanligini namoyon etib turibdi. Bu xol uning yon tomonga keskin burilgan boshida, ko'z qarashida, oyoqlarini yoyib, erga qattiq o'rnashib turishida ko'rinadi. Donatello o'z asarlarida real odamlarning xususiyatlarini berishga harakat qilar ekan, shu bilan birga, antik haykaltaroshlik san'ati namunalarini o'rgandi, uni tengi yo'q namuna, deb xisobladi. Uning «Dovud» deb nomlangan haykali Uyg'onish davrida birinchi marta kiyimsiz xolda tasvirlangan odam haykali edi. «Otdagi Gattamelatta» haykali esa o'z mehnati va aql-zakovati bilan jamoatchilikka manzur bo'lgan insonni ulug'lash uchun o'rnatilgan birinchi otliq haykali bo'ldi.

«Munajjimlarning ta'zim qilishi» (tax. 1440-1445 y., Berlin-Dolem va zakovatini ulug'laydi. Kastano yaratgan «Sirli oqshom» devoriy Venestiano (tax. 1410-1461 yillar) asli venestiyalik bo'lib, Florenstiyaga Davlat mo'zeyining surat galereyasi), «Madonna va avliyolar» (tax. 1445 y, Donatello umrining so'nggida yaratgan «Yudif va Olofern», «Mariya Magdalina» kabi asarlar yaratdi. Bulardan, ayniqsa, so'nggisida uning ijodiga xos gumanistik g'oyalar o'rnini pessimistik kayfiyatlar egallay boshlaganligi ko'rinadi. Donatello relef san'atida ham samarali ijod qildi. Uning Paduyadagi Sant Antonio cherkovi mehrobiga ishlangan releflarida avliyo Antonio hayotidan

olingan syujetlar yuksak maxorat bilan ishlangan va shu san'atning eng yuksak namunasi xisoblangan. Juda murakkab, ko'p figurali bu kompozistiyada tasvirlanuvchilarning xis-tuyg'u va kechinmalari tasirchan va jonli talqin etilgan. Donatello Uyg'onish davri realistik haykaltaroshligining asoschisi bo'lib, u faqat shu san'at g'oyaviy mazmunini emas, balki badiiy vositalarini ham yangilashga bel bog'ladi. Uning ijodida gumanistik san'at ideali ilk bor o'z ifodasini topdi. U naturani chuqur ko'zatish, antik dunyo san'ati yutuqlarini o'rganish asosida Uyg'onish davri san'atkorlari ichida birinchi bo'lib, erda mustaqil turgan odam haykalini yaratish masalasini xal etdi, haykaltaroshlik portretini boshlab berdi, bronzadan birinchi otliq haykalini ishladi. Donatello ijodida boshlangan bu xususiyatlar keyingi Evropa haykaltaroshligida uzoq vaqt maktab vazifasini o'tadi. Rangtasvir. Florensiya rangtasviri XV asrda realizm yo'liga kirib kela boshladi. Rassomlar gotika ta'siridan qutulib, Jotto ijodining ilg'or tomonlarini rivojlantirdilar. Monumental rangtasvirdagi «al-fresko» ko'rinishi o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Mazachcho. Florensiya rangtasvirida Mazachcho nomi bilan mashhur bo'lgan Tommazo di ser Giovanni di Simone Kassai muhim o'rinni egalladi va unda realistik yo'nalishni boshlab bergan yirik san'atkor sifatida tanildi. Mazachcho 1401 yili notarius oilasida dunyoga keldi va juda erta otasidan etim qoldi. O'n olti yoshida Florensiyaga keladi va shu erda rassomlik asoslarini egallaydi, rassomlarga shogird tushib, ularga devoriy suratlar ishlashda yordam beradi. Filipp Brunelleski va Donatello ijodini qunt bilan o'rganadi. Vazari ta'biricha, u o'z asarlarining tabiiy, jonli va real borliqqa o'xshab chiqishiga katta e'tibor beradi. Natijada u tezda Florensiya rangtasvirida ko'zga ko'ringan rassomlardan biriga aylanadi. Mazachcho juda qisqa, 27 yil umr ko'rdi (1428 yili vafot etgan), lekin shu umri davomida yaratgan sanoqli asarlar Italiya san'atining keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Rassom o'z ijodi davomida jasur insonning umumlashma, ideal obrazlarini yaratishga harakat qildi. Diniy mavzudagi kompozistiyalarda o'z zamondoshlari kiyofasini tasvirlashdan cho'chimadi. Rassom yaratgan kompozistiyalar chiziq va rang perspektivasi qonunlari asosida

ishlanganligi, har bir obrazning anatomik tuzilishi, odam jussasidagi nur-soya o'zgarishlari, uni muhit bilan aks ettirishi, shu bilan birga, obrazlardagi yaxlitlik rassom zamondoshlari, ulardan keyingi avlod uchun ham xaqiqiy o'rganish maktabi bo'ldi. Mazachcho ijodidagi ana shu xislatlar uning Florensiyadagi Sant Mariya del Carmine cherkovining Brankachchi kapellasiga ishlagan devoriy suratlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu suratlar rassomning asosiy ishi, ijodining chuqqisi hisoblanadi. Bu suratlarda rassomning novatorligi, san'atga qo'shgan xissasi namoyon bo'ladi. Suratlarda apostol Petr tarixi va tavrotdan olingan voqealar aks ettiriladi. Bular ichida «Jannatdan kuvilganlar», «Statir mo'jizasi» kabi suratlar diqqatga sazovordir. «Jannatdan quvilganlar» kompozitsiyasi so'zsiz, rassomning yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan asardir. Suratda jannat darvozasidan chiqib kelayotgan Odam Ato va Momo Xavo hamda ularning tepasida qo'lida qilich ushlagan farishta tasvirlangan. Asarda ortiqcha detal va obrazlar yo'q. Rassom diqqatini asosiy obrazlarga, syujetning dramatik mazmuniga qaratishga, ularning plastik echimiga e'tibor beradi va kiyimsiz odamlar tasvirini nur-soya yordamida ishonarli xolda hajmli talqin etadi. Bunda nur tasvir vositasi sifatida xizmat qilish bilan birga, uning ifodali va emostional tomonining oshishida ham muhim o'rinni egallagan. U kompozitsiyaga kenglik, fazoviylik kiritadi, obrazlarni havo bilan o'raydi. Ularning odimlab ketishayotgan paytini ishonarli chiqishiga erishadi. Mazochchoning «Statir mujizasi» asari ko'p figurali kompozitsiya bo'lib, unda Iso va uning shogirdlaridan shaharga kirishlari uchun soqchilarning statir (tanga) talab qilganlari va Isoning buyrug'i bilan avliyo Petr ko'ldan baliq tutib, uning qornidan chiqqan tangani soqchiga berganligi tasvirlanadi. Afsonadagi ana shu voqealarning hammasi bir kompozitsiyada aks ettiriladi. Uning markaziy kismida joylashgan shahar darvozasi oldida apostollar ulug'vor, salobatli. Ularning xatti- harakati, o'zlarini tu-tishlari, qiyofalaridagi xolat, tabiat ko'rinishi asardagi voqealarni oddiy hayotiy voqeaga yaqinlashtiradi va dunyoviy mazmun kashf etadi. Mazachchodan juda oz meros qolgan. Lekin Brankachchi kapellasiga ishlangan suratlarining o'ziyoq uni novator rassom sifatida namoyon etadi, san'atda yangi asr

boshlanayotganligidan darak beradi. Bu kurtak ko'pgina Uyg'onish davri rassomlari uchun namuna maktabi bo'lib, keyinchalik Italiya san'ati rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Vazarining yozishicha, Mazachchoning Brankachchi kapellasiga ishlagan suratlarini ko'rish uchun Italiyaning boshqa shaharlaridan ham rassom va san'at shinaavandalari kelgan. Bular ichida Uyg'onish davrining buyuk rassomlari Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelolarni ham uchratamiz. Ilk Uyg'onish davri realistik san'ati taraqqiyotida Paolo Uchchello (1397-1475) hamda Andrea del Kastano (1423- 1457) lar ham muhim o'rin egalladilar. Paolo Uchchello nomi bilan mashhur bo'lgan Paolo di Doni to'g'risida ma'lumotlar kam saqlangan. Shunga karamay, bizgacha saqlangan asarlari uni san'atning nazariy masalalari bilan shug'ullanib, amalda tatbiq etishga intilgan san'atkor sifatida namoyon qiladi. Uning o'z asarlarida, ayniqsa chiziqli perspektiva imkoniyatlaridan foydalanishga hamda obrazlarni murakkab- rakurslarda tasvirlashga intilishi seziladi. Uning ilk asarlaridan biri Florenstiyadagi soborlardan biriga ishlangan devoriy surat bo'lib, unda kondoter (yollangan otliq qo'mondon) tasviri tushirilgan kompozistiya rassom izlanishlarini namoyon qiladi. U chiziqdi perspektiva imkoniyatidan foydalanib, bu kompozistiyani shunday ko'radiki, tomoshabin uni go'yo pastdan turib idrok etayotgandek xis qiladi. Uchchello jang voqealarining monumental tasvirini ishlashga intilgan G'arbiy Evropadagi birinchi rassomlardan xisoblanadi. Bu kompozistiyalarda uning chiziqli perspektiva va murakkab rakurslardan foydalanishga intilishi, voqelikni chuqur kenglik ichida ko'rsatishga harakat qilganligi seziladi. Kastano ham Mazachcho boshlagan yo'lni davom ettirib, voqelikni xajmli va muxitda tasvirlashga intildi va shu bilan birga, kolorit masalalari bilan ham qiziqdi. Andrea del Kastano o'z ijodida Mazachcho va Donatello maktabi saboqlarini qo'llashga, qaxramonlik pafosi bilan sug'orilgan , dramatik kompozistiyalarni monumental formalarda aks ettirishga intilgan san'atkorlardandir. Kastano asarlari ichida ayniqsa, Pandolfino villasi devoriy suratlari mashhur. Bu suratlarda qadimgi va o'z zamonasining ilg'or kishilarini tasvirlaydi va shular orqali inson ruhi etuk ijodkor sifatida kirib kelgan (1438 y.) va shu er san'ati ta'sirida yirik

vakillaridan bo'lib, o'z davrining shoir, rassomlaridan edi. U Italiya ilk Uyg'onish davrining mashhur koloristi Domeniko ishlaganida yordam bergan, degan taxminlar bor. Filippe Lippi ham o'ziga kompozistiyada ham rassom o'zini realist san'atkor sifatida namoyon Mazachchodan ta'lim olib, unga Brankachchi kapellasiga devoriy suratlar predmetlarni xavo bilan o'rashda muhim rol uynaydi. Venestiano yaratgan rassom asarlarida fazoviy kenglik yaratishda, mavjud obraz va surati, ayniqsa, mashhur. Diniy mavzuga bag'ishlangan bu ulug'vor, monumental asarlar yaratgan. Uning asarlari nurga boy. Hyp fazilatlar, xayajonlanish, cho'chish, ikkilanish kabi xislatlarni ifodalab, Florenstiya, Uffisti galereyasi) shunday asarlardandir.

Fra Filippe Lippi(1406-1469) Florenstiya rassomlik maktabining har bir tasvirlanuvchining individual fazilatini yoritishga erishadi.

«Gudakka ta'zim qilish» (tax.1458-1460 y., Berlin-Dolem, Davlat mo'zeyining surat galereyasi) asari Isoning tug'ilishiga bag'ishlangan asarlar ichida o'zining yangicha intim va lirik planda talqin etilishi bilan ajralib turadi. Rassomning eng poetik asarlaridan hisoblangan bu kompozistiyada Bibi Maryam tiz cho'kkan xolda erda, maysalar ustida yotgan chaqaloqqa qarab turgani tasvirlangan. Quyuq o'rmonzor va maysazorlardagi gullar rassom tomonidan tabiatni chuqur xis qilib chizilganligini ko'rsatadi .

2.3 Italiyada yuqori uyg'onish davri san'ati

Franstuz qo'shinlarining Italiya erlarini bosib olishi uning siyosiy va iqtisodiy qudratini bo'shashtirib yubordi. Mamlakatning dushmanga to'liq qaram bo'lib qolish xavfi tug'ildi. Ana shu davrda xalqning o'z ozodligi, milliy butunligi uchun kurash iortdi, boshqarishning respublika formasi uchun kurashdilar. Bu katta va muhim ijtimoiy ko'tarinkilik yuqori UYG'ONISH davri san'ati rivojlanishining zaminini tashkil etdi. Yuqori Uyg'onish davri tamoyillari Italiyaning

muhim badiiy markazlari bo'lgan Florensiya, Rim va Venestiyada o'zining tugal ko'rinishlarini namoyon etdi. Yuqori Uyg'onish davri nisbatan qisqa, ya'ni XV asrning 90- yillaridan XVI asrning 30-yillariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Lekin mazmunan bu davr juda ulug' va Italiya san'ati taraqqiyotining «oltin asri» hisoblanadi. Shu davrda yashab ijod etgan buyuk titanlar Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tistian o'z mohiyati jihatidan chuqur, mahoratli jihatidan yuksak, barkamol asarlar yaratdilar. Ular o'zlarining har tomonlama o'tkir va bilimdonliklari bilan ham o'z davrlarining ideal kishilari timsoliga aylandilar. Ular yaratgan obrazlar esa gumanistik g'oyalarni o'zida mujas-samlantirdi. Jismoniy baquvvat, ma'naviy barkamol, har qanday diniy ta'sirlardan xoli bo'lgan, o'zi va o'zgalar uchun kurasha oladigan, xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'ya oladigan inson davrning, san'at asarlarining bosh qaxramoniga aylandi. Shu bilan birga, shu yuqori Uyg'onish davri san'ati qo'ynida tushkunlikni targ'ib etuvchi gumanizm g'oyalaridan uzoq bo'lgan manerizm oqimi yoyila boshladi.

Me'morlik. Yuqori Uyg'onish davri me'morligining asosiy prinsiplari Rimda shakllandi va rivojlandi. Davrning gumanistik tamoyillari ulug'vor va tantanali me'morlik kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi. Amaliy ijodda antik me'morlik orderlari erkin va ijodiy ishlatila boshlandi. Italiyada rivojlanib kelayotgan me'morlik uslublari umumlashtirilib, yagona milliy me'morlik uslubi yaratildi.

Donato d' Anjelo Bramante (1444-1514) yangi davr me'morligining asoschisi va yirik vakilidir. U o'z ijodini Milanda (1472-1499) boshladi. Lekin Rimga ko'chib kelgandan keyingina bu erda antika san'atini o'rganish va o'zlashtirish asosida o'sha davr kishilari qarashlariga mos bo'lgan bir qator yirik me'morlik kompozitsiyalari ishlab, davrning harakterli uslubini yaratdi. Uning bu yangi tamoyillari Tempetto deb nomlangan ibodatxonada namoyon bo'ldi. Aylanasimon rejada ishlangan gumbazli bino atrofi ustunlar bilan o'rab chiqilgan. Hajmi jihatdan katta bo'lmagan bu bino o'zining mahobatlilik bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Bramante ijodining eng yuksak namunalari Vatikanda qurilgan binolardir. Rim papasi Vatikanni rekonstruktsiya qilishni maqsad qiladi va uni Bramantega topshiradi. U bu erda mavjud dastlabki binolarni tartibga keltirish va ulardan yagona ansambl tuzishga kirishadi, qator galereya va zinalar qurdiradi, keng, quyosh nuriga to'la hovlilar yaratib, yirik ansambl tashkil etadi. Bramantening muhim asarlaridan biri Rimdagi avliyo Pyotr soborining loyihasidir. Me'mor bu bino qurilishiga markaziy qubba bino ko'rish prinsipini asos qilib oldi. Sobor rejasi asosiga kvadrat va uning ichida hamma tomoni teng bo'lgan grek buti olingan. Pastki qator qurilmalar ustiga o'rnatilgan gumbaz ustunlar bilan o'ralgan, uning tepasida to'ng'irilgan qozonni eslatuvchi katta (diametri 43 m) gumbaz joylashgan. Bramante loyihasi to'liq amalga oshmadi. U faqat gumbaz osti piloni va soborning tashqi devorlarini qurishga ulgurdi. U vafot etganidan so'ng sobor kurilishi bilan qator me'morlar shug'ullandilar. Bramante palastto kurilishi san'atida ham muhim rol o'ynadi, pilyastr, gorizontaal tasma va karnizlarning o'ziga xos yaxlit va soddaligi bilan qurilgan binolariga maxobatlik va ulug'vorlik baxsh eta oldi. Tasviriy san'at. Florensiya ilk Uyg'onish davri an'analari yuqori Uyg'onish davri uchun asos qilib olindi va rivojlantirildi. Tasviriy san'atda sodir bo'lgan xususiyatlar ham me'morlikdagi singari ulug'vorlikka, umumlashgan obrazlar yaratish hamda maxobatli bo'lishiga harakat kilishda namoyon bo'ldi. Leonardo da Vinchi (1452-1529). Leonardo da Vinchi qishlog'I yaqinida, notarius oilasida dunyoga keldi. Leonardo 17

yoshlik paytida otasi Florensiyaga ko'chib o'tadi. Shu erda Leonardo Andrea Verokkio ustaxonasida tasviriy san'at borasidagi biliminn oshirdi. U o'z ustozini Verokkioga yordamlashib, uning «Isoni cho'qintirish» (tax. 1476 y., Florensiya, Uffisti galereyasi) asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishlaydi va ustozidan ham moxirligini ko'rsatadi. Yuqori Uyg'onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san'atning ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rdi, matematika mexanika, fizika sohasida ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san'at hayotni bilish vositasi bo'ldi. Uning real voqelik asosida ishlagan suratlari keyinchalik ilmiy asarlari uchun illyustratsiya vazifasini o'tadi. Ijodkor harakteriga xos bo'lgan bu xususiyat u yaratgan rangtasvir asarining o'ziga xos tomonlarinn belgilaydi. Uning har bir asari hayotni o'rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» (Benua Madonnasi) deb nomlangan ilk asarida shunday hislatlar mavjud. Rassom kompozitsiyada ortiqcha detal va lavhalardan voz kechib, tasvirlanuvchining harakteristikasini kuchaytirishga, shakllarini umumlashtirishga intilgan. Kompozitsiyada yosh ona tizzasida o'tirgan go'dakning ona qo'lidagi gulga talpinayotgan payti tasvirlangan. Tepa tomondan tushayotgan yorug'lik tasvirning yanada yaqqol ko'rinishiga imkoniyat yaratgan. Darchadan ko'rinayotgan osmon kompozitsiya muvozanatligiga xizmat qilib, obrazni cheksiz tabiat bilan o'zviy bog'lagan. Asarda xech qanday diniy-mistik kayfiyat yo'q. Ona va bola boshi atrofiga ishlangan tilla gardishni hisobga olmaganda, hammasi oddiy florensiyalikning uyidagi baxtni, ona va bola shodligidagi go'zallikni kuylovchi asar sifatida namoyon bo'ladi Bu asar dunyo sirlarini bilishga qiziqan, nur va go'zallikka intilgan insonni sevgan rassomning Duneqarashini namoyon qiladi. Rassom har bir asar ustida uzoq vaqt ishlar, ishlanadigan har bir obraz va detalning hayotiy bo'lishi uchun dastlab ularni aloxida naturaning o'zidan ishlab, o'rganib, so'ng kompozitsiyaga ko'chirar edi. Bu unga berilgan buyurtmalarning ba'zan vaqtida tugallanmasligiga sabab bo'lar, buyurtmachi bilan nizolar kelib chiqar edi. «Sexrgarlar ta'zimi», «Avliyo Ieronim» kabi asarlarning

yarimtugal holatda qolishiga ham sabab shudir. Leonardo Milanda yashagan kezlari 1482-1499 yillarda u o'zini olim, rassom, injener sifatida namoyon etish imkoniyatiga erishdi. U o'z faoliyatini haykaltaroshlik bilan boshladi. Milan hokimi Lodoviko Moro otasi uchun yodgorlik modelini ishladi. Lekin 1499 yili Milanning franstuz qo'shinlari tomonidan bosib olinishi bu ishni amalga oshirish imkoniyatini bermadi. Me'mor sifatida ham Leonardo Milanda bir qator surat va proektlar ishladi. «G'ordagi madonna» (1483-1494), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi mashhur asarlarini yaratdi. Milandagi «Sant Mariya della Grastie» monastri uchun ishlagan mashhur «Sirli oqshom» devoriy surati Leonardo da Vincini novator rassom darajasiga ko'taradi. U injildan olingan an'anaviy syujetni erkin va asosan, obrazlarning his-tuyg'u va kechinmalarini ishonarli talqin etishi hisobiga ochadi. Milan franstuz qo'shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florenstiyaga qaytib keladi. Bu erda «Angiari oldidagi jang» devoriy suratining kartonini yaratadi, shuningdek, o'zining mashhur asari «Mona Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mona Liza» portreti (1503) jahon rangtasvirining mashhur yodgorligidir (14-rangli rasm). Bu portret bilan Evropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi. Aslida xotirjam, o'z suhbatdoshiga nisbatan samimiy va mehr ko'zi bilan boqib o'tirgan florenstiyalik ayol tasvirlangan. Uning ortida murakkab tabiat ko'rinishi aks ettirilgan. Ayol shu tabiatning ajralmas qismi va u bilan o'zviy bog'langan. Sochlari, kiyimlaridagi buklanish va jimjimalar go'yo tabiat ritmini qaytarayotgandek tuyuladi. Ana shular fonida mayin va nozik qilib ishlangan ayol qiyofasi, nixoyatda chiroyli qo'llari yanada latofatli va go'zal bo'lib tuyuladi. Bu latofat va go'zallik uning nigohidagi samimiylik va mehribonlik bilan uyg'unlashib, ideal go'zal inson qiyofasini gavdalantiradi. Leonardo da Vinchi umrining oxirida ilmiy kuzatish va ularni sistemalashtirish ustida ish olib boradi. Rang-barang tasvir haqida risola yozishga kirishadi. Bu risola tugallanmagan bo'lsa ham, to'plangan va saqlanib qolgan qismlari uni realistik san'atning etuk nazariyotchisi sifatida namoyon qilgan. Uning chiziq, rang perspektivasi, rangshunoslik haqida yozib qoldirgan fikrlari hanuzgacha o'z qiymatini yo'qotmagan. Rafael Santi (1483-1520).

Uyg'onish davriniyag yuksak gumanistik ideallari shu davrning titanlaridan biri Rafael Santi ijodida o'zining tugal va poetik talqinini topdi. Leonardoning kichik zamondoshi Rafael san'atdagi o'zigacha bo'lgan yutuqlarni o'zlashtirgani holda, garmonik kamol topgan go'zal inson obrazini yaratdi, mu'tabar ona obrazi orqali davrning yuksak g'oyalarini ifodaladi. Oddiy rassom Jovanni Santining farzandi Rafael tasviriyyot asoslarini dastlab o'z otasidan, so'ngra mahalliy urbinalik rassom Timoteo Viti ustaxonasida davom ettirdi. 1500 yil Perudjino (Petro Vanuchchi) ustaxonasida o'z bilimini oshirdi. Perudjino ijodi Rafaelga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Uning obrazlarni fazoda erkin va tabiiy holda joylashtirish va tasvirlashga intilish, muhit bilan uyg'unlikda ko'rsatish kabi fazilatlar Rafael ijodida sezilarli iz qoldirdi. Rafael ijodi juda erta boshlandi. O'n etti yoshida yaratgan ilk asari «Konestabile madonnasi» (1500) rassomni ijodiy kamolotga erishgan, aniq insoniy pozistiyaga ega bo'lgan san'atkor sifatida namoyon etdi. Bu asarda qo'lidagi kitobga talpinayotgan go'dakka mehr ko'zlari bilan boqib turgan yosh ona tasvirlangan. Ortida sokin tabiat, uning qo'ynida o'z yumushi bilan band odamlar ko'rinadi. Hammayoqda tinchlik va osoyishtalik xukm suradi. Rafael bu asarida obrazlar harakatining tabiiy bo'lishiga erishgan holda, yosh onaga xos bo'lgan lirik kayfiyat hamda voqelikdan zavqlanish holatini ustalik bilan ko'rsata olgan. Chiziq, plastikasi, nafis ranglar garmoniyasi esa shu xolni yanada chuqurlashtirib, uning emostional tomonini orttirishga xizmat qiladi. Perudjiyada 4 yilga yaqin bo'lganidan so'ng Rafael yana Urbinoga qaytadi va bir ozdan so'ng Florensiyaga keladi. Bu erda o'zining mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan qator madonnalar obrazini yaratdi va tezda yuqori Uyg'onish davrining etuk ijodkorlaridan biriga aylandi. XVI asr boshlariga kelib, Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylana bordi. Uning mavqeini yanada orttirish maqsadida Rimpapalari etuk san'atkorlarni shaharga taklif eta boshladilar. Shu davrda Mikelanjelo, Bramantelar qatori Rafael ham papalar diqqatini o'ziga tortdi va 1508 yili ularning taklifiga binoan, Rimga keldi, shu paytdan Rafael ijodining eng gullagan davri boshlandi va shu erda u o'zining eng etuk asarlarini yaratdi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash

topshirildi. Rafael bu suratlar ustida 1511 yilgacha mehnat qilib, uni muvaffaqiyatli bajardi. Undan xursand bo'lgan papalar unga yana xonalarni bezash va ularga devoriy suratlar ishlashni davom ettirishni topshirishdi. Bu ish ustida rassom 1517 yilgacha ishlab, o'z iste'dodini to'liq namoyon qildi. U ajoyib dekorator, kompozistiya ustasi sifatida o'zini ko'rsatdi. Bu devoriy suratlar mavzusi ko'p xollarda qadimgi davr voqealari, afsonalarga bag'ishlangan. Bu mavzular zahirida esa davr kishilariga ibrat bo'la oladigan voqealar yotar edi. Bu suratlar papalarning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashini ko'rsatishi hamda yo'qolib borayotgan cherkov obro'sini qayta tiklashi va mustahkamlashi zarur edi. Uyg'onish davrining gumanistik g'oyalari, ularning antik dunyoga bo'lgan zo'r e'tiqodlari «Afina maktabi» devoriy suratlarida o'z ifodasini topdi. Surat shu davr kishilarining yorqin kelajak xaqidagi o'y va tasavvurlarini namoyon qiladi. Markazda idealistik va materialistik filosofiyaning otalari Platon va Aristotel tasvirlangan. Past tomonda, chapdagi zina oldida shogirdlari qurshovida Pifagor, o'ng tomonda esa Evklid va teparoqda Rafael o'zini tasvirlaydi. Hammasining xatti-harakatida yuksak ko'tarinkilik va yaratuvchilik kayfiyati xukm suradi. Rafael ishlagan devoriy suratlar ichida «Iliodorning quvilishi» kompozistiyasi ham mashhurdir. Bu suratda ibodatxona boyliklarini o'g'irlamoqchi bo'lgan suriyalik harbiy qo'mondonni g'oyibdan paydo bo'lgan otliq va farishtalar jazolab, xudayotgan payti tasvirlangan. Bu syujetning tanlanishi tasodifiy emas, albatta. Italiyada og'ir kunlar boshlangan bir paytda cherkov boyliklarini qo'lda qurol ushlab ximoya qilishga majbur edi. Bu tasvir ham shu cherkov boyliklariga ko'z olaytirmaslikka chaqiruvchi asar sifatida yaratilgan bo'lib, shuning oldini olish va kimda-kim unga ko'z olaytirsam, qattiq jazolanishini eslatib turishga mo'ljallangan edi. Rafael devoriy suratlar ishlashdan tashqari, maxobatli-dekorativ rasmlar ustida ham ijod qildi, gilamlar uchun kartonlar ishladi.

Bulardan, ayniqsa, apostol Pyotr tarixiga ishlangan suratlar mashhurdir. Rassom dastgoh rang-tasvirida etuk portretlar yaratdi. Bulardan tashqari, Rafael Rimda bo'lgan kezlarda o'zining eng mashhur asari «Sikst madonnasi» (1515-1519) asarini yaratdi.

Bu surat avliyo Sikst cherkovi uchun mo'ljallangan edi. Asar uchun afsonaviy voqea asos bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, Bibi Maryam o'z farzandini dushmanga topshirib, erdagi odamlarni azob-uqubatdan kutqarishi mumkin bo'lgan. Rassom kompozistiyasida Bibi Maryamning o'z farzandini dushman qo'lga topshirish uchun ketayotgan payti tasvirlangan. Go'yo parda ochilib, bola ko'targan Bibi Maryamning oyoqlarini bulutlarga qo'yib, pastga tushib kelayotgani, pastrokda, uning ikki tomonida avliyo Sikst va avliyo Varvara, pastda xayol surib o'tirgan farishtalar tasvirlangan. Ularning nigohlari cheksizlikka qaratilgan. Bu asarda rassom o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yadigan ideal inson obrazini yaratib, o'z davri kishilarining gumanistik ideallarini poetik talqin eta oldi. Asarning yuksak mahorat bilan ishlanishi, rang garmoniyasidagi tugallik uning emostional kuchini oshiradi. Rafael ijodining so'nggi yillari rang-barang. U rassomlik bilan birga, me'mor sifatida ham ijod qildi. U Bramante vafotidan keyin Avliyo Pyotr soborini qurish ishiga rahbarlik qildi, villa va cherkovlar uchun karton va chizmalar ishladi, qalamda suratlar chizdi. Rafael 37 yoshida vafot etdi. Uning boshlagan ishlarini shogirdlari davom ettirdi. Lekin ular o'z asarlarida ustozlari ijodiga xos bo'lgan chuqur g'oyaviy gumanistik mazmunni ocha olmadilar. Mikelanjelo Buonarotti (1475-1564). Uyg'onish davri kishilarining ideal inson to'g'risidagi tushunchalari yuqori Uyg'onish davrining buyuk ijodkori Mikelanjelo ijodida o'zining to'liq va atroflicha ifodasini topdi. Bu san'atkor qahramonlari insondagi butun ijobiy hislatlarni fazilatiga singdirib yuborgan kishilardir. U san'atning ko'p turlarida, jumladan, haykaltaroshlik, memorlik, rassomlikda ijod qildi. Lekin u qaysi san'at turida ijod etmasin, shakliy jihatdan tugal, g'oyaviy jihatdan chuqur, badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata oldi. Mikelanjelo 70 yillik ijodiy faoliyati davomida san'at maydonida davr ruhi bilan hamnafas asarlar yaratdi. Shu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak ideallari bilan bir qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham juda nozik his etgan holda ko'rsata oldi. Uyg'onish davri tushkunligini birinchi bo'lib, achinish va iztirob bilan etirof etdi.

Mikelanjelo 1475 yili 6 martda, Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Uning yoshligi Florensiyada o'tdi. Otasining

qarshiligiga qaramay, o'zini san'atga bag'ishlashga qaror qildi. 13 yoshida u lorenstiyalik Domeniko Girlyadiyo ustaxonasiga o'qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak istedodi Florensiya hokimi Lorensto Medichini o'ziga tortdi. Uni medichilar saroyi qoshidagi badiiy maktabga talabalikka olishdi. Bu erda Mikelanjelo Donatello shogirdlaridan biri qo'lida ikki yil o'z bilim va mahoratini oshirdi. Saroyda yosh rassom antik dunyo san'ati namunalari bilan tanishdi, ulardan ko'chirmalar ishladi. Protorenessans va ilk Uyg'onish davri san'atkorlari bilan, ayniqsa, qahramonlik va tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan Jotto va Mazachcho devoriy suratlari bilan, Yakopo della Kverchi haykallari bilan qiziqdi, ularni o'rgandi. Saroyda bo'lib turadigan mashhur shoir, rassom, haykaltaroshlar, filosof va me'morlar yig'inlaridan voqif bo'lgan yosh san'atkor dunyoqarashi rivojlandi. «Zina oldidagi madonna» (1492), «Kentavrlar janggi» (1494) san'atkorning marmardan ishlangan dastlabki mustaqil asarlaridir. 90-yillarning boshlarida yaratilgan bu bo'rtma tasvir (relief) o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, tasvirlangan obrazning to'laqonligi, san'atkor tanlagan badiiy shakllarning rang-barangligi, ifodaliligi va kompozistiyasining dinamikasi bilan kishida kata taassurot qoldiradi. Bu asarlarda san'atkor ijodiga antik san'atning ta'siri kuchli bo'lganligi seziladi. Bu ta'sir, ayniqsa, uning Italiya shaharlari (Bolonya, Rim) bo'ylab qilgan sayohati davrida yaratgan «Vakx haykali» (1498) da ham seziladi. Rimda yaratilgan «Peta» («Isoga aza tutish», 1498-1501) haykali Mikelanjeloga haqiqiy shuhrat keltirdi. Isoga motam tutish mavzusiga bag'ishlangan bu fojiali dramatic kompozistiyani san'atkor chuqur psixologik rejada hal etib, uni haqiqiy insonning his-tuyg'u va kechinmalari bilan to'ldirdi. Onaning cheksiz iztirob va qayg'usini uning quyi egilgan boshi, chap qo'lining ixtiyorsiz harakati hamda xomush va mungli termulshii orqali ochishga muyassar bo'lgan. Mikelanjelo Isoning onasini yosh qilib tasvirlaydi. Bu bilan rassom fojiali mavzuni optimistik ruhda tasvirlashga, qiyofaga ruhiy poklik va go'zallik kiritishga, gumanistnk ideallarning g'alaba kilishiga ishonch pyhi bilan qarashga harakat qilganligi ko'rinadi. Mikelanjelo 1501 yili Florensiyaga qaytadi. Shu erda shahar hokimiyatining buyurtmasi bilan yaxlit marmardan

o'zining mashhur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat, 1504 yili bu haykal Florensiyaning bosh maydoniga o'rnatiladi. Zamondoshlari bu haykalni yuqori baholadilar va uni Florensiya respublikasining himoyachisi, erkinlik va ozodlik ramzi sifatida qabul qildilap. Haqiqatda ham, afsonaviy qahramon buyuk san'atkor uchun davr idealini ifodalashga juda qo'l keldi. Bu obrazga o'z vaqtida Donatello, Verokkio murojaat qilishgan edi. Lekin Mikelanjelo o'z qahramonining g'alabadan keying paytini emas, balki jangga tayyor turgan paytdagi holatini tasvirlash orqali uning gumanistik harakterini yanada kuchaytirdi. San'atkor san'at tarixida birinchi bo'lib, butun kuchi bilan dushman hamlasiga qaqshatkich zarba berishga tayyor turgan jasoratli, qudratli inson obrazini yaratish orqali o'z baxt-saodati uchun kurasha oladigan, o'z kuch va imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladigan inson qiyofasini yaratishga muyassar bo'ldi. Mikelanjelo o'zini haykaltarosh deb xisoblar edi. Lekin rangtasvir san'atida ham u o'z zamondoshlaridan o'zib ketdi va uning haqiqiy nodir namunalarini yaratib qoldirdi. Bu san'atda ham rassomning bosh qahramoni insondir. Uning jismoniy qudrati, aqliy barkamolligi va ma'naviy go'zalligi san'atkor ijodining bosh yo'nalishini belgilaydi. Bu g'oyani ifodalashda esa sanatkor o'ziga xos mahobatli badiiy tildan juda o'rinli foydalanadi. 1503-1504 yillarda yaratgan yagona dastgoh asari bo'lgan «Muqaddas oila» (Donni madonnasi) kompozistiyasida ishlatilgan yaxlit shakllar, obrazlarning haykaltarosh asari singari hajmli talqin etilishi uning mazmunini yanada chuqurlashishi va ta'sirchanligining or-tishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bibi Maryam, Yusuf va Iso obrazlari ulug' siymolar darajasiga ko'tarilgan (108-rasm).Mikelanjelo Florensiyada bo'lgan kezlarida u «Kashinadagi jang» mahobatli rangtasvir ustida ham ish olib bordi, uning kartonini ishladi. Lekin 1505 yili papa Yuliy II taklifiga binoan, Rimga ko'chib ketadi va bu ish oxiriga etkazilmay qoladi. Rimda Mikelanjelo Yuliy II buyurtmasiga binoan, uning maqbarasi loyihasi ustida ish boshlab yuboradi. Xaybatli mavzoley loyihisini tugatib, uni qirqqa yaqin haykal va bo'rtma tasvirlar bilan bezatmokchi bo'ladi. O'z rejalarini amalga oshirish va zarur materiallarni topish bilan band bo'lib

yurgan kezlarida Yuliy II maqbara qurdirish fikridan qaytadi. Buni bilgan Mikelanjelo achchiqlanib, Florensiyaga qaytib ketadi. Yuliy II bir necha bor undan Rimga qaytishni iltimos qiladi, lekin Mikelanjelo unga rad javobini beradi. Faqat Florensiya hukumati Rim bilan aloqasini buzmaslik maqsadida Mikelanjeloni Rimga qaytib borishga ko'ndiradi. 1508 yili Yuliy II Mikelanjeloga Vatikandagi Sikst kapellasining shifti va devorlarini suratlar bilan bezab berishni taklif qiladi. Mikelanjelo bu taklifni istar-istamas qabul qiladi. Bu buyurtma ustida san'atkor to'rt yil tinimsiz mehnat qiladi (1508-1512). Dastlab shu yuzalarga mos tushadigan kompozistiyalar ustida fikr yuritadi, devoriy surat texnologiyasi bilan tanishadi, «al-fresko»ning murakkab texnikasini o'rganadi, juda katta hajmda qalam-suratlar hamda kartonlar ishlaydi. Shundan so'ng devor va shift yuzalariga rasm chizishga kirishadi. O'z qo'li bilan 600 kv m ga yaqin yuzani suratlar bilan bezab chiqadi. Turli murakkab holatda turgan odamlar gavdasi tasviri shu yuzaga ishlangan suratlar kompozistiyasini tashkil etdi. Mikelanjelo surat kompozistiyasini xonaning ichki harakter, darcha, eshik hamda xonadagi boshqa me'morlik detallari va hajmlarini xisobga olgan holda tuzadi. Xonaning asosiy devorlariga dunyoning yaratilishi, odamning paydo bo'lishini tasvirlovchi voqealar ishlangan. Shiftga ishlangan suratlarining mazmuni eshik tomonidan boshlanib, mehrob tomon rivojlanib boradi. Unda insonning ma'naviy barkamollikka erishish bosqichlari ifodalandi. Kapelladagi suratlarining umumiy g'oyasi dinni targ'ib etish emas, balki inson kuch-qudratini, aql-zakovatini ulug'lash, uning jismoniy go'zalligini kuylashga qaratilgan. Hayot tantanasini ulug'lovchi bu asarda mungli ohaglar ham seziladi, ayrim obrazlarda iztirob chekish, dunyoga ishonchsizlik bilan qarash, pessimistic kayfiyatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bu, albatta, shu davr Italiya hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, eng avvalo, gumanistik ideallarning inqirozi bilan bog'liqdir. Bu xususiyat, ayniqsa, Italiyaga chet el bosqinchilarining kirib kelishi bilan yanada yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Uning 1513-1516 yillarda ishlagan «Zanjirband qul», «O'layotgan qul», «Ibrohim» haykallarida shu pessimistik kayfiyat

seziladi. Bu haykallar Yuliy II vafotidan so'ng uning vorislari tomonidan berilgan buyurtma edi. Papa maqbarasiga qo'yish uchun mo'ljallangan bu haykallarda Uyg'onish davri ideallarining barbod bo'layotganligi, inson kurashda o'zini ojiz seza boshlayotgani ishonarli talqin etiladi va bu g'oya Mikelanjelo asarlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mikelanjeloning yirik me'morlik asarlaridan biri Florenstiyadagi San Lorensto cherkoviga qo'shimcha qilib qurilgan medichilar kapellasi, unga ishlangan qabr toshi va haykallardir. Kapellaning uncha katta bo'lmagan, kvadrat shaklidagi xonasining oq devorlari to'q kul rang marmardan ishlangan pilyastrlar bilan ajratilgan. Urbinskiy va Juliano Nemurskiylarning sag'analari joylashgan. Ularning haykallari esa shu sag'analarning tepa qismiga ishlangan tokchalarga kuyilgan. Bu tokchalar oldida chikyab turgan sarkofaglarning (kdingi tosh tobut) tepa tomonlariga zabardast yalangoch erkak va ayol haykallari, tong, kech, kun va tun allegoriyasi ishlangan. Ular sarkofagning yarim aylana shaklidagi tepa kismiga joylashtirilgan bo'lib, go'yo shu qiyalikdan surilib, pastga tushib ketayotganga uxshaydi. Haykaltarosh kompozistiyani shunday echish orqali bezovtalik, notinchlik kayfiyatini ko'rsatadi. Vaqtning beomon va o'tkinchi ekanligini va inson hayotining abadiy emasligini ta'kidlaydi. 1534 yili Mikelanjelo butunlay Rimga ko'chib keladi. Papa Pavel III buyurtmasi sikst kapellasining mehrob devoriga «Kiyomat qoyim» (1534- 1514) mavzusida rasm ishlaydi. Kompozistiya markazida Isoning o'z gunoxkor bandalarini so'roq qilayotgan payti tasvirlangan. Mikelanjeloning Rimda ishlagan haykaltaroshlik asarlari sanokli. Ularda haykaltaroshning birmuncha mungli kayfiyati o'z ifodasini topgan. Ijodkorning me'morlik iste'dodi Rimda birmuncha rivojlandi. Bu erda u avliyo Pyotr soborini qurishda, shahar ansambllarining rekonstrukstiyasida kdtinashdi. Mikelanjelo ijodi o'z davrida va o'zidan keyingi davr san'atkorlariga kuchli ta'sir qildi.

2.4 Yuqori uyg'onish davrida Venestiya san'ati

XV asr o'rtalarida Venestiya yuqori Uyg'onish davriga qadam qo'ydi. Konstantinopolning turklar tomonidan bosib olinishi. Italiya shaharlarida avvalgi savdo-sotiq ishlarining kamayishiga olib keldi. Lekin o'z qo'lida juda ko'p boylik to'plab olishga ulgurgan Venestiya aristokratiyasi uzoq vaqt o'z mustakilligini saqlab qola olish imkoniyatiga muyassar bo'ldi. San'at va madaniyatda yuqori Uyg'onish davri tamoyillari o'z ifodasini topdi. Bu erda etuk me'mor, haykaltarosh, rassomlar ijod qilib, Italiya obrusini dunyoga taratdi. Me'mor Yakopo Sansovino (1486-1570) tomonidan Venestiyada olib borilgan rekonstruktsiya ishlari shahar qiyofasini o'zgartirib yubordi va suv kanallari bilan o'zviy bog'ladi. Nihoyatda jimjimador va nafis avliyo Mark (San Marko) kutubxonasi esa o'ziga yaqin bo'lgan maydonni yagona ansamblga birlashtirdi. O'ng'iroqxona, cherkov binolari shaharga qaytarilmas qiyofa baxsh etdi. Lekin Uyg'onish davrida Venestiya, ayniqsa, rangtasvir borasida yuksaklikka erishdi, o'zining boy va rangdor koloriti bilan mashhur bo'ldi. Ana shu san'atning shakllanishi va rivojlanishida Belinilar oilasi muhim o'rinni egalladi. Bu oilaning kattasi Yakopo Bellini (1400-1470) tomonidan boshlangan yo'nalish voqelikni tasvirlashda perspektiva imkoniyatlaridan foydalanish, odam qomatini ishlashda anatomik aniqlikka e'tibor berish uning ikki o'g'li Jentile va Jovanni ijodida davom ettirildi. Ayniqsa, uning kichik o'g'li Jovanni Bellini (1430-1516) ijodida Venestiya san'atida Uyg'onish davri an'analarni o'zining tugallangan ko'rinishiga erishdi. Jovanni Bellini moybo'yoq. texnikasidan foydalanib, ranglar jarangdorligiga erishdi. XVI asr venestiyalik rassomlarning kolorit sohisidagi katta yutuklariga asos yaratdi. U o'z asarlari bilan yuqori Uyg'onish davri san'atining shakllanishiga katta ta'sir qildi va bu shakllanishda uning shogirdlari Jorjone va Tistian muhim o'rinni egalladi. Inson jismoniy go'zalligiga maftun bo'lish, uning tasvirini ishlashga intilish venestiyalik rassomlar ijodida aloxdda o'rin tutadi. Gumanistik prinsiplarga sodiq bo'lish, inson irodasi va imkoniyatlariga ishonish etuk rassomlar ijodining asosini tashkil etdi. Venestiya rangtasviridagi ana shu

xususiyatlar dastlab Jorjone deb nom olgan Jorjo Barbarelli Kastel-franko (1476-1510) ijodida ko'rina boshladi. Uning «Yudif» (1502), «Uxlayotgan Venera» (1508- 1510) kabi mashhur asarlari voqelikni poetik talqin etish, chuqur lirik his-tuyg'uning mo'lligi bilan harakterlanadi. Rassom o'z qaxramonlarini ko'p holda tabiat qo'ynida tasvirlaydiki, sokin, osoyishta tabiat ko'rinishi uning asarlariga poetik ruh kiritib, ta'sirchanligini oshiradi.

Jorjone o'z ustози Bellining moybo'yoqda rasm ishlash texnikasini yanada boyitdi, hajm, nur, havo va ranglardagi jozibani moybo'yoqda zo'r mahorat bilan ifodaladi. Jumladan, «Uxlayotgan Venera» asarida badan harorati ranglar jozibasi va tovlanishi orqali ishonarli talqin etilgan (15-rangln rasm). Jorjone ijodi gullagan bir davrda hayotdan ko'z yumdi hatto, u o'zining «Uxlayotgan Venera» asarini tugatishga ham ulgurmadi. .Uning manzara qismini, shuningdek, bir qator buyurtmalarni uning shogirdi Tistian Vechello (1487-90-1576) davom ettirdi va tugatdi. Tistian o'z ustози boshlagan ishni davom ettirib, uning yuksak mutahislik mahorati, rangning emostional tomonidan to'liq foydalanishga intilishini chuqur gumanistik g'oyalar bilan to'ldirib, Venestiya yuqori Uyg'onish davri san'atining etuk namunalarini yaratdi. Tistianning ilk asarlarida voqelikni xotirjamlik bilan idrok etishda, tanlagan tiplarining ko'rinishi hamda mavzusida Jorjonening ta'siri seziladi. Lekin Tistian obrazlari o'zining to'laqonliligi, xushchakchakligi va xissiyotliligi bilan farqlanib ham turadi. U o'z asarlarida ko'pincha qarama-qarshi harakterlarni, ularning ichki holati va kechinmalarini tasvirlaydi. Buni «Erdagi va xayoliy muxabbat» (1514), «Kesari dinori» (1516) kabi asarlarida ko'rish mumkin. Tistian ijodining gullagan davrida mehrob uchun bir qator suratlar ishladi, portretlar chizdi. Ularda voqelikni to'laqonli va atroflicha tasvirlashga intilish seziladi. Tasvirlanayotgan har bir aniq, tugal harakterni ko'rsatishga intilish uning asarlariga hayotiylik kiritadi. 1530-1540 yillarga kelib, rassom asarlaridagi xayajonli va dinamik kompozistiya urnini xotirjamlik, muvozanatli kompozistiylar egallay boshladi. Rassomning diniy va mifologik mavzularda ishlagan rasmlarida ham bevosita shahar hayoti lavhalari, konkret tiplar tasviri kiritilgan. Tistian butun ijodi davomida portret

janrida ijod qildi. U o'z qahramonlarining harakterini ochishda tasvirlanuvchining xatti-harakati, o'zini tutishi, mimik holatiga e'tibor beradi. «+o'lqopli yigit portreti» (1520) da qisilgan lab, chaqnab turgan ko'z, oq va qora rangdagi kiyimlar konkret harakterni chuqurlashtirib, aniq maqsadga intiluvchi, o'z imkoniyat va qadrini bilgan ishbilarmon, ziyrak inson qiyofasini gavdalanitiradi. «Ippolito Riminaldi portreti» (1540yil oxiri) da esa tasvirlanuvchi obrazning qarashida, oqargan yuzida uning ichki xissiyoti - ikkilanish va hayron bo'lish kayfiyati ochiladi (109-110-rasmlar). Tistianning «Papa Pavel III o'z jiyanlari bilan» (1545- 1546), «Karl V ning otda o'tirgan paytidagi portreti» (1548) asarlari ham o'zining realistik harakteri bilan qimmatlidir. XVI asr o'rtalaridan boshlab, Venestiya respublikasida inqirozning boshlanishi, feodal-katolik reakstiyaning kuchayishi rassom asarlariga ham ta'sir qila boshlaydi. Tistian endilikda odamlarning azob chekayotgan, qiynalayotgan paytlarini tasvirlayotgan asarlar («Avliyo Lavrentiyni qiynash», «Tikanli chambar», «Avliyo Sebastyan» va h. k.) yarata boshladi. Rassom ijodiy uslubida ham o'zgarishlar sodir bo'lib, ranglardagi yorqinlik va jilvadorlik o'rnini og'ir, mungli, qoramtir ranglar egalladi. Lekin rassom o'z asarlarida gumanistik ideallardan qaytmadi. U insonning imkoniyati, aql-zakovati, qudratiga ishonadi, umrining oxirigacha shular hakida asarlar yaratdi. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Italiya san'ati va madaniyatidagi inqiroz kuchaygan davrlarda, Venestiyaning ko'pgina rassomlari o'z ijodlarida Uyg'onish davri gumanistik tamoyillariga sodiq qoldilar. Hayotni to'laqonli va atroflicha tasvirlashga intilish ular ijodining asosini tashkil etdi.

Veroneze nomi bilan mashhur bo'lgan Paolo Kalyari (1528-1588). Tintoretto nomi bilan mashhur bo'lgan Yakopo Robustilar (1518-1594) shu davr rassomlari ichida alohida o'rinni egallaydi. Ular Venestiya maktabi an'alarini rivojlantirgan holda, uni mazmunan boyitdilar. XVI asr o'rtalarida mamlakatning iktisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'nggi Uyg'onish davri me'morligida ham o'z ifodasini topdi. Yirik me'morlik kompozistiyalari urnini davrning feodal restavrastiyasining jonlanishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy buyurtmalar kengroq

egalladi. Villa palaststo kurilishi sohisida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bog'-park me'morligi uslubi shakllandi. Past-balandlikka ega bo'lgan maydonda bog' yaratish Italiya park san'atining muhim shartlaridan hisoblanadi. Bu past-balandliklar bir-biri bilan murakkab zinalar orqali bog'lanadi. Tepalik va ularning yonbag'irlari esa turli dekorativ qurilmalar, g'or, suv kaskadlari, fontan, lodjiya haykallari hamda manzarali o'simliklar bilan bezatiladi. Parkning asosiy yo'li darvoza tomonga yunalgan. +olgan yo'l va zinalar ham shu tomonga yo'naltirilgan bo'lib, park kompozitsiyasining tugal bo'lishini ta'minlagan.

Bu davrda me'morlikning nazariy masalalariga e'tibor berish, yaratilgan va yaratilayotgan binolarni ilmiy asoslashga intilish boshlandi, bir qator ilmiy asarlar yaratildi. XVI asr o'rtalaridan boshlab, Italiya shaharlarida paydo bo'la boshlagan maxsus o'quv yurtlari, akademiylarning paydo bo'lishi va ularda me'morlikka oid ta'limlarning o'tilishi muhim voqea bo'ldi. Bularning hammasi keying Evropa me'morligi taraqqiyotida o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Jakomo Baroststi da Vinola (1507-1573). Bu davrdagi me'morlik binolarida bir tomondan, qadimgi antika, ayniqsa, Rim me'morligi ta'siri sezilsa, ikkinchi tomondan, binolarning bezagiga ortiqcha e'tibor berila boshlanganligi ko'zga tashlanadi. Me'morlikdagi birinchi ko'rinish yirik Rim me'mori va nazariyotchisi Vinola ijodida namoyon bo'ldi. Vinola antika davri me'morligi nazariyotchisi Vitruviy asarlarini o'rganib, o'z davri qurilishlarini tartibga solish va uni ilmiy asosda yaratishga harakat qildi. Uning «Besh me'morlik orderlar qoidasi» (1562) risolasi davrning muhim qo'llanmasi sifatida keng yoyiladi. Vinolaning ilk ijodi Balonyada boshlandi. Shu erda va Rimda bir qator binolar qurdi. Papa Yuliy III villasi, yozgi uyi (kazino), oval rejasidagi gumbazli oratoriya (xor aytish uchun mo'ljallangan bino) hamda ko'pgina fontanlar uning ijodiga mansubdir. Uning eng kata asarlaridan biri, kardinal Farneze uchun qurilgan beshqirrali, o'rtasida aylana shaklidagi xovlisi bo'lgan Kaprarola qasridir. Vinolaning cherkov me'morligi sohisida yaratgan binolari ichida Iso cherkovi (Il Jezu) mashhurdir. Bu bino keyingi cherkov kurilishi uchun asos bo'ldi. Bu binoda Vinola asosiy nefga e'tibor berib, uning yon tomonlarida uncha chuqur bo'lmagan kapellalar hamda nef va

transepti kesishgan tepada gumbaz ishlaydi. Franchesko Maststola (1503-1540). Parmidjanino deb nom olgan parmalik rassom Maststola ijodida manerizm oqimiga xos bo'lgan xususiyatlar to'liq ifodasini topdi. U o'zining ilk asarlaridayok. (masalan, «+avariiq ko'zgu oldidagi avtoportret» (1527 y.), «Atirgulli madonna» (1527 y.) da shu fazilatlar ko'rina boshladi, rassom dastlab tomoshabinni o'zining ishlash uslubi va tasvirlanayotgan voqelikning hayratda qoldiradigan darajada bo'lishiga intiladi. Ishlagan madonnalarini ko'p xollarda kichik boshli, uzun bo'yinli, naynov, g'ayri tabiiy xatti-harakatda tasvirlaydi, asar uchun yorqin, serjilva kolorit tanlaydi. Parmidjanino ijodidagi bu xususiyatlar manerizm oqimining rivojlanishi va yoyilishida katta ta'sir qildi.

Jorjo Vazari (1511-1574). Maxobatli-dekorativ rangtasvirdagi manerizmning tipik vakili Vazari xisoblanadi. Uning asarlari o'zining obraz va detallarining haddan ortiq ko'pligi, kompozitsiyalarining birmuncha bo'sh ishlanganligi bilan harakterlanadi. Lekin Vazari san'at tarixida o'zining «Eng mashhur rassom, haykaltarosh va me'morlar hayoti to'g'risida» degan kitobi bilan shuxrat qozongan. Benvenuto Chellini (1500-1571). Florenstiya manerizmning yirik vakili, zargar va haykaltarosh Chellini hisoblanadi. U Florenstiya, Rim, Mantuyada yashab ijod etgan. Bir necha bor Franstiyaga borgan va bu bilan franstuz san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan

XULOSA

Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim insoniyatning shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlari ichida eng buyuk o'zgarish bosqichi, bu davr o'z tafakkur kuchi, extiros va harakteri jihatidan, mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni etishtirib berdi. Dunyoviy san'at va madaniyat misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Uyg'onish davri kishilari insonning aql-idrokiga, imkoniyatining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakdagi tantanasiga ishonidilar. O'z izlanishlarining markaziga esa shu insonni qo'ydilar. Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yarata oldilar, keng xalq ommasining orzu-istak, his-tuyg'ularini ifodalab, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr «gumanizm asri» (humanism lotincha insoniy, insonparvar) deb ham ataldi. O'yg'onish davri antik dunyo madaniyatidan ta'sirlandi. Uning yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi(antik dunyo yodgorliklarining Italiyada mo'lligi bunga qo'l keldi). Lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanmadilar. Aksincha, undan o'z fikr, tuyg'u tushunchalarini ta'riflashda foydalandilar. Real voqelikka, go'zallikka qiziqish davr taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hayot real xodisa deb tan olindi. San'atkorlar voqelikni haqqoniy tasvirlashda yangi qonun-qoidalarini izlay boshladilar. Perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya nazariyasi, plastik anatomiya borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Me'morlik va amaliy-bezak san'ati ijodkorlari qadimgi an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdilar, me'morlikning yangi konstrukstiyalari vujudga keldi, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi ijtimoiy binolar qad ko'tardi. Binoning tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish, san'at sintezi borasida erishilgan yutuqlar keyingi jahon san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Abdullaev N.U. "San'at tarixi" Toshkent, O'qituvchi 2001.*
2. *Abdullaev N.U. "San'at tarixi" Toshkent, Elektron o'quv qo'llanma 2004.*
3. *Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari. G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent 2009*
4. *Apuxtin O.K. «Tasviriy san'at asoslari» Toshkent O'qituvchi 1967 yil*
5. *Abdullaev N «San'at tarixi» 1-2-tom. Tshkent 1972 y.*
6. *Vernisaj 1977 y. Obzor xudojestvennoy jizni Uzbekistna albom Tashkent 1980 yil.*
7. *San'atshunoslik nihllari. (maqlalar to'plami) Toshkent san'atshunoslik instituti 1995 yil.*
8. *«San'at jurnali» O'zbekiston badiiy akademiyasi nashri Toshkent 2006 yil 4,2,6 sonlari.*
9. *Maxmudov T, Olimov Ya «O'zbekiston san'atida inson omili» Adabiyot va san'at nashriyoti T-1997 yil.*
10. *Majidov J «Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar» metodik qo'llanma. Toshkent o'qituvchi nashriyoti 1983 yil*
11. *L.Remnel, G.Pugachenkova O'zbekiston tasviriy san'ati Toshkent 1985*
12. *Xasanov R, Jilstva A. Uchinchi sinfdan tasviriy san'at darslarida foydalanishga oid metodik ko'rsatmalar. Toshkent O'qituvchi 1976 yil.*
13. *Molodbie xudojniki Uzbekistana Albom Tashkent 1977 yil.*
14. *Krukovskaya S.M V mire sokrovish. Izd. Gafura*
15. *.
www. TDPU.uz*
16. *.
www. pedagog.uz*
17. *.
www. Ziyonet.uz*